

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01.RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

XOSILOVA FARIDA RUSTAMDJANOVNA

**FILOLOG-TALABALARNING KASBIY NUTQINI RIVOJLANTIRISH
JARAYONIDA AKT dan FOYDALANISHNING LINGVOMETODIK
ASOSLARI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (rus tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2024

UDK: 81'342.8/9:811.161:37.062.3

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

Contents of dissertation abstract of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Xosilova Farida Rustamdjanovna

Filolog-talabalarning kasbiy nutqini rivojlantirish jarayonida AKT dan
foydalanishning lingvometodik asoslari 3

Хосилова Фарида Рустамджановна

Лингвометодические основы использования ИКТ в процессе развития
профессиональной речи студентов–филологов25

Khosilova Farida Rustamjanovna

Linguo-methodological foundations for the use of ICT in the process of developing
professional speech of philology students47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....52

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01.RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETI**

XOSILOVA FARIDA RUSTAMDJANOVNA

**FILOLOG-TALABALARNING KASBIY NUTQINI RIVOJLANTIRISH
JARAYONIDA AKT dan FOYDALANISHNING LINGVOMETODIK
ASOSLARI**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (rus tili)

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Ped3206 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (ryezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (www.cspu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Ahmedova Muqaddas Hodimetovna**
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar: **Xodjaniyazov Sardor Umarovich,**
pedagogika fanlari doktori, dotsent
Xashimova Dildora Urinbayevna,
pedagogika fanlari doktori, professor.


Yetakchi tashkilot: **Qo'qon davlat pedagogika instituti**


Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc 03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "16" 07 -soat 1409 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+99870) 712-27-55; (+99870) 712-45-41; faks: (+99870) 712-45-41; e-mail: cspi_kengash@umail.uz).


Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (333 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (+99870) 712-27-55; (+99870) 712-45-41.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "5" 07 kuni tarqatildi.
(2024-yil "5" 07 dagi _____ S raqamli reyestr bayonnomasi).




L.N. Xodjamqulov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, p.f.d. (DSc), dotsent


F.T. Rajabov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi, p.f.d. (PhD), dotsent


V.B. Fayziyev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (PhD), dotsent

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon zamonaviy axborot jamiyatining rivojlanishi har bir insonning bilimlarini doimiy ravishda yangilash, yangi faoliyat turlarini rivojlantirishga bo‘lgan ehtiyojining ortishi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ushbu tendensiya butun jahondagi ta‘lim paradigmasi va modelini o‘zgartirish masalasini keltirib chiqarmoqda. Dunyoda axborot hamda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalarini qamrab olmoqda, xususan, ta‘limning ortib borayotgan ma‘lumot hajmiga, tabiatda va jamiyatda sodir bo‘layotgan dinamik o‘zgarishlarga, butun inson muhitiga yetarliligini ta‘minlash zarurati ortmoqda. Mazkur jarayonlar kontekstida bo‘lajak mutaxassislarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, ular ijtimoiylashuvining asosiy omillaridan bo‘lgan kasbiy nutqini rivojlantirish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoda kundalik va kasbiy hayotda kasbiy nutq hamda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning dolzarbligi muammosini o‘rganishga, lingvistik, ijtimoiy-madaniy, pragmatik, lingvistik-madaniy va kasbiy nutqning boshqa tarkibiy qismlarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bunda til, shuningdek, madaniy, psixologik va ijtimoiy bilimlar sintezi asosida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy nutqini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-pedagogik tadqiqotlar o‘tkazishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu esa kasbiy muloqot jarayonining psixologik, pedagogik va lingvistik omillarini aniqlashtirish, nutqiy ko‘nikmalarning kasbiy faoliyatdagi ahamiyatini aniqlashtirish, bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish muammosining ilmiy asosda tadqiq etishga bo‘lgan zaruratni kuchaytirmoqda.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda oliy o‘quv yurtlarida rus tilini o‘qitishni tubdan takomillashtirish bo‘yicha ko‘plab amaliy loyihalar va tadqiqotlar olib borilmoqda. “Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, ... yoshlarning ongu tafakkurini ma‘rifat asosida shakllantirish va tarbiyalashdir¹” deb ta‘kidlaydi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va uning keng imkoniyatlarini ta‘lim sifati hamda samaradorligini oshirishga yo‘naltirish bilan bog‘liq tendensiyalar kuzatilmoqda. Darhaqiqat, axborot texnologiyalari ta‘limiy vosita sifatida uning didaktik imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu borada zamonaviy lingvodidaktikada raqamli o‘qitish texnologiyalaridan faol foydalanish sharoitida chet tillarini o‘qitish jarayonidagi ustuvorliklarning o‘zgarishi natijasida kommunikativ-faoliyat va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarning tobora yetakchi tamoyillarga aylanishi ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-sonli “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi (elektron manba) <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-prezidentishavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>

to'g'risida", 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 15-iyundagi PQ-3775-sonli "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarda faol ishtirok etishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlarga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy mamlakatlarda kasbiy nutq sohasining lingvistik aspektlari, kasbiy muloqotning nazariy va amaliy asoslari V.I. Annushkin, N.K. Garbovskiy, N.V. Novikova; Z.S. Smelkova, E.L. Tumina, E.V. Xarchenko, T.V. Samosenkova va boshqalarning ishlarida tadqiq etilgan. Shuningdek, faoliyat nazariyasining falsafiy va psixologik-pedagogik asoslari K.A. Abulxanova-Slavskaya, Yu.K. Babanskiy, P.Ya. Galperin, V.V. Davidov, N.I. Jinkin, A.A. Ivin, A.N. Leontyev, A.A. Leontyev, J.R. Serl, S.L. Rubinshteyn kabi olimlarning tadqiqotlarida o'rganilgan. Tillarni o'qitishning lingvometodik asoslari, shu jumladan, rus tilini chet tili sifatida o'qitish muammolari I.L. Bim, E.A. Bistrova, N.D. Galskova, G.A. Kitaygorodskaya, L.P. Klobukova, V.G. Kostomarov, A.A. Leontyev, E.V. Meshcheryakova, O.D. Mitrofanova, I.V. Mixalkina, L.P. Muhammad, G.V. Rogova, V.V. Safonova, N.Z. Talipova, S.T. Terminasova, A.N. Shamovlar tomonidan o'rganilgan. Nutq ko'nikmalarini shakllantirishning umumiy pedagogik tamoyillariga qaratilgan tadqiqot ishlari G.P. Grays, A.D. Deykin, N.V. Kuznetsova, T.A. Ladijenskaya, A.A. Leontyev, M.R. Lvov, L.Z. Shakirova, N.F. Talizina, A.V. Usovalar tomonidan amalga oshirilgan. Kasbiy ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning umumiy pedagogik va didaktik asoslari E.G. Azimov, M.A. Bovtenko, D.V. Burimskaya, A.N. Golubeva, O.V. Lisenkova, O.I. Rudenko-Morgun, E.V. Smirnova, I.V. Robert, G. Shampaner, E.V. Shirshov va boshqalar tomonidan tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda rus tilini o'qitish metodikasi, bo'lajak o'qituvchilarda rus tili bo'yicha kasbiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirish, kasbiy nutq muammosining amaliy asoslari V.I. Andriyanova, D.U. Xashimova, L.T. Ahmedova, O.V. Kon, E.A. Lagay, V.I. Normuratova, N.E. Sharipova, M.A. Berdiyeva, N.J. Niyazova, I.R. Yoqubovalar tomonidan o'rganilgan.

Talabalarning kasbiy nutqini rivojlantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish jarayonining algoritmini ishlab chiqish, uning ta'limiy-metodik modeli yaratishga bo'lgan zarurat mazkur dissertatsiya tadqiqotining mavzusini belgilab berdi.

Tadqiqotning dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Talabalarga rus tilini chet tili sifatida o'qitishda innovatsion, kompyuter va yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi filolog-talabalarining kasbiy nutqini shakllantirish va rivojlantirishning samarali vositalaridan biri sifatida AKT orqali rus tilini chet tili sifatida o'qitishning lingvometodik asoslarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

filolog-talabalar kasbiy nutqini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish;

filolog-talabalar kasbiy nutqini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning lingvometodik asoslarini takomillashtirish;

talabalar kasbiy nutqini rivojlantirishda elektron o'quv vositalaridan foydalanishning universal modelini ishlab chiqish;

filolog-talabalarining rus tilida nutq kompetensiyasini shakllantirish va kasbiy nutq madaniyatini o'qitishning uslubiy tizimini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida filolog-talabalarining kasbiy nutqini rivojlantirishning lingvometodik asoslarini takomillashtirish jarayoni belgilanib, pedagogik tajriba-sinov ishlariga Termiz davlat pedagogika instituti, Buxoro davlat universiteti, Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti va Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetlaridan 529 nafar talaba jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini o'quv jarayonida AKTdan foydalangan holda filolog-talabalarining kasbiy nutqini rivojlantirishning pedagogik mazmuni, shakli, vositalari va usullari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, modellashtirish, kuzatish, pedagogik eksperiment va natijalarni matematik-statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

filolog-talabalar kasbiy nutqini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari rus tili ta'limida sotsializatsiya va akkulturatsiya jarayonlarining lingvometodika bilan integratsiyalashda ularning kommunikativ kompetentligini innovatsion ta'lim muhiti imkoniyatlariga muvofiq belgilash asosida aniqlashtirilgan;

filolog-talabalar kasbiy nutqini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning lingvometodik asoslari talabalar kasbiy rivojlanishining individual trayektoriyasini ergonomik talablarga nisbatan texnologik jihatdan gorizontaal va vertikal integratsiyasini ta'minlash hamda kasbiy karyera talabalariga ko'ra muloqot kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasiga muvofiq metodikalarni tanlash asosida takomillashtirilgan;

talabalar kasbiy nutqini rivojlantirishda elektron o'quv vositalaridan foydalanishning universal modeli kasbiy muloqot kompetensiyasini kognitiv va empirik takomillashuv standartlariga muvofiq rivojlantirishga nisbatan belgilangan

talablarga algoritmik izchillikni ta'minlashga ko'ra metodik moslashtirish asosida ishlab chiqilgan;

filolog-talabalarning rus tilida nutq kompetensiyasini shakllantirish va kasbiy nutq madaniyatini o'qitishning uslubiy tizimi lingvistik etnosotsium muhitida texnologik jarayonli yondashuvlarni axborot texnologiyalarining ta'limiy imkoniyatlariga hamda vitagen ta'lim integratsiyasini ta'minlashga muvofiq gorizontal va vertikal ravishda metodik-didaktik aspektda qo'llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

filolog-talabalarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali rus tilida kasbiy nutqini rivojlantirishning uslubiy tizimi ishlab chiqilgan;

talabalarning kasbiy nutqini axborot texnologiyalari asosida rivojlantirishning elektron ta'lim resurslari yaratilgan;

filolog-talabalarning kasbiy nutqini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan interfaol dars ishlanmalari yaratilgan;

“Lingvokulturologiya” nomli metodik qo'llanma tayyorlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi filologik ta'lim, pedagogik proyektlash va modellashtirish jarayonida rus tilini o'qitishning axborot-kompyuter texnologiyalari hamda elektron vositalarini ishlab chiqish bo'yicha fundamental lingvistik, psixolingvistik, lingvometodik ishlarga tayanilgani, zamonaviy manbalarning nazariy qoidalaridan foydalanilgani, olingan ma'lumotlarni sifat va miqdor jihatdan tahlil qilish natijalarining maqbul nisbati, shuningdek, taklif etilayotgan o'quv tizimini amalga oshirishda muallif shaxsiy ishtirokining mavjudligi, natijalarning vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mutaxassislik tilining ustuvorligi va talabalarning o'zini o'zi rivojlantirishning shaxsga yo'naltirilgan tamoyillari asosida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali filolog talabalarning rus tilida kasbiy nutqini rivojlantirishning uslubiy tizimi takomillashtirilganligi, filolog-talabalar kabiy nutqini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari aniqlashtirilganligi, filolog-talabalar kabiy nutqini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning lingvometodik asoslari takomillashtirilganligi hamda talabalar kasbiy nutqini rivojlantirishda elektron o'quv vositalaridan foydalanishning universal modeli ishlab chiqilganligi va ulardan lingvokulturologiya, rus tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati filolog talabalarning kasbiy nutqini samarali rivojlantirish va shakllantirish modeli algoritmi, filolog-talabalarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali rus tilida kasbiy nutqini rivojlantirishning uslubiy tizimi ishlab chiqilganligi, tadqiqot natijalari asosida tayyorlangan “Lingvokulturologiya” nomli metodik qo'llanmalardan pedagogik oliy ta'lim muassasalarida rus tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishshi talabalariga tayyorlanayotgan ma'ruza matnlari, o'quv-uslubiy majmualar

tayyorlashda, shuningdek, umumiy oʻrta taʼlim maktablarida rus tili fanidan oʻquv-metodik taʼminotni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Filolog-talabalar kasbiy nutqini rivojlantirishning lingvometodik asoslari boʻyicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

rus tili taʼlimida sotsializatsiya va akkulturatsiya jarayonlarining lingvometodika bilan integratsiyalashda ularning kommunikativ kompetentligini innovatsion taʼlim muhiti imkoniyatlariga malaka talablariga muvofiq belgilash asosida aniqlashtirilgan filolog-talabalar kasbiy nutqini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, talabalar kasbiy rivojlanishining individual trayektoriyasini ergonomik talablarga nisbatan texnologik jihatdan gorizont va vertikal integratsiyasini taʼminlash hamda kasbiy karyera talablariga koʻra muloqot kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasiga muvofiq metodikalarni tanlash asosida takomillashtirilgan filolog-talabalar kasbiy nutqini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning lingvometodik asoslari boʻyicha taklif va tavsiyalardan “Русский язык. Язык специальности (для студентов филологических направлений)” nomli oʻquv qoʻllanmasini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-maydagi 232-sonli buyrugʻi asosida berilgan 232-521 raqamli ruxsatnomasi). Natijada, filolog talabalarning amaliy, oʻquv-kasbiy va ilmiy faoliyatida rus tilidan foydalanish samaradorligi oshishiga xizmat qilgan;

kasbiy muloqot kompetensiyasini kognitiv va empirik takomillashuv standartlariga muvofiq rivojlantirishga nisbatan belgilangan talablarga algoritmik izchillikni taʼminlash orqali metodik moslashtirish asosida ishlab chiqilgan talabalar kasbiy nutqini rivojlantirishda elektron oʻquv vositalaridan foydalanishning universal modeli boʻyicha taklif hamda tavsiyalardan SamDChTIda 2020-2022-yillarda bajarilgan “Ingliz tili mutaxassisligi boʻyicha axborot texnologiyalari asosida oʻquv jarayoniga virtual resurslarni yaratish va joriy etish” nomli amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2022-yil 17-noyabrdagi 3636/30.02.01-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, boʻlajak filologlarni pedagogik va metodik qobiliyatini oshirish hamda taʼlim tizimini mustahkamlash maqsadiga erishilgan;

lingvistik etnosotsium muhitida texnologik jarayonli yondashuvlarni axborot texnologiyalarining taʼlimiy imkoniyatlariga hamda vitagen taʼlim integratsiyasini taʼminlashga muvofiq gorizont va vertikal ravishda metodik-didaktik aspektda qoʻllash asosida takomillashtirilgan filolog-talabalarning rus tilida nutq kompetensiyasini shakllantirish hamda kasbiy nutq madaniyatini oʻqitishning uslubiy tizimi boʻyicha ilmiy xulosalardan SamDChTIda 2020-2021-yillarda bajarilgan “Erasmus+ loyihasi doirasida Sangia 561624-err-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS-CBHE IMEP” nomli loyihani bajarishda foydalanilgan (Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2022-yil 17-noyabrdagi 3637/30.02.01-sonli maʼlumotnomasi). Natijada, universitetlarning til yoʻnalishlari talabalarining kommunikativ kompetensiya darajasi oshishiga xizmat qilgan;

kasbiy muloqot kompetensiyasini kognitiv va empirik takomillashuv standartlariga muvofiq rivojlantirishga nisbatan belgilangan talablarga algoritmik izchillikni ta'minlash orqali metodik moslashtirish asosida ishlab chiqilgan talabalar kasbiy nutqini rivojlantirishda elektron o'quv vositalaridan foydalanishning universal modeliga oid xulosalardan T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialida "Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg'unligi asosida ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashning muammolari" nomli loyihada foydalanilgan (O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti Qoraqalpog'iston filialining 2023-yil 12-maydagi 233-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, institutda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlariga tatbiq etishga yordam bergan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan, 1 ta o'quv qo'llanma, 1 ta metodik qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta hamda xorijiy jurnallarda 6 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning asosiy hajmi 134 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, metodlari tavsiflangan, tadqiqot obyekti, predmeti aniqlangan, ishning ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi hamda hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Filolog-talabalarining kasbiy nutqini shakllantirish va rivojlantirishning nazariy hamda lingvometodik asoslari**" deb nomlanib, unda rus tilini o'qitishning samarali modelini yaratishda asosiy tushuncha sifatida "lingvistik shaxs" toifasi ko'rib chiqiladi, kasbiy nutqning o'ziga xos xususiyatlari ta'lim jarayonida "ikkilamchi" lingvistik shaxsni shakllantirish va rivojlantirishning eng muhim tarkibiy qismi sifatida tavsiflanadi, shuningdek, talabalarning kasbiy nutqini rivojlantirish jarayonida an'anaviy va elektron ta'lim tizimlari o'zaro farqlanadi.

Bobda zamonaviy tilshunoslik va lingvodidaktikada rivojlangan "til shaxsi" (rivojlangan lisoniy (lingvistik) shaxs) ta'rifi antropotsentrik yondashuv doirasida amalga oshirilgan hamda "inson omilining tildagi roli"ni o'rganishga bag'ishlangan ishlar bilan ifodalangan yangi strategik yo'nalishlar ko'rib chiqildi. Ushbu ilmiy ishlarining asosiy g'oyasi, tilni bilish orqali insonni tushunish, bilishga asoslangan

bo‘lib, Y.N.Karaulov 1987-yilda o‘zining “Русский язык и языковая личность” kitobida quyidagicha yozadi: “Нельзя познать сам по себе язык, не выйдя за его пределы, не обратившись к его творцу, носителю, пользователю – к человеку, к конкретной языковой личности”².

Ushbu asarda filologning kasbiy yo‘naltirilgan shaxsini tavsiflash uchun ishlatiladigan “til shaxsi” tushunchasi, bizning fikrimizcha, til, uning tuzilishi va faoliyati to‘g‘risidagi bilimlarni tillarni o‘qitishda kommunikativ-faoliyat hamda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar nuqtai nazaridan tushunish va o‘zlashtirishga imkon beradi, o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda aloqa vositalari, usullari, shakllarini kompleks rivojlantirishga kirishish uchun maqsadlar, adresat, aloqa uchun o‘quv shartlari shakllanadi. Zamonaviy lingvodidaktikada chet tillarini o‘qitish jarayoniga qo‘yilayotgan talablarning o‘zgarishi natijasida *kommunikativ-faoliyatga oid va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar*³ yetakchi tamoyillar sifatida belgilanadi, ular asosida “lingvistik shaxs” va “ikkilamchi lingvistik shaxs” tushunchalari shakllanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ushbu ishda rus tilini chet tili sifatida o‘qitish jarayonida O‘zbekiston o‘quv yurtlarida filolog talabalar uchun talaba shaxsining ketma-ket o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uchta gipostazining rivojlanishi va shakllanishining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarurligi to‘g‘risidagi holat ilgari surilmoqda: *shaxs – lingvistik shaxs – “ikkinchi darajali” lingvistik shaxs*.

O‘z fikrlarini yanada rivojlantirgan Y.N.Karaulovning ta’kidlashicha, tilni o‘qitishning samarali modelini yaratish “uning ko‘p bosqichli tashkil etilishini hisobga olmasdan, tuzilmani shakllantirish tamoyillariga, xususan, uning aql-idrokiga murojaat qilmasdan” til shaxsidan ajralib turolmaydi⁴. Bunday tushunchaga asoslanib, olim lingvistik shaxsni “tarkibiy va lingvistik murakkablik darajasi, voqelikni aks ettirish chuqurligi va aniqligi, maqsadli yo‘nalishi bilan ajralib turadigan nutq asarlarini (matnlarni) yaratish va idrok etishni belgilaydigan insonning qobiliyatlari va xususiyatlarining to‘plami” deb ta’riflaydi.

Olim o‘z ta’rifining asosiy qoidalarini asoslab, mos ravishda lingvistik shaxsning tarkibiy modelining quyidagi uchta darajasini aniqlaydi:

Birinchi daraja verbal-semantik (yoki struktur-semantik) bo‘lib, uning birliklari og‘zaki assotsiativ tarmoq birliklari sifatida alohida so‘zlardir. Talabalar kommunikativ muammolarni hal qilishga qaratilgan tilning tizimni shakllantirish funksiyasi parametrlarida o‘rganilayotgan tilning tarkibiy va tizimli aloqalarini o‘zlashtiradilar;

Ikkinchi daraja – lingvokognitiv (tezaurus) bo‘lib, uning birliklari har bir lingvistik shaxsda qadriyatlar iyerarxiyasini aks ettiruvchi dunyoning ozmi-ko‘pmi tartibli manzarasida shakllanadigan tushunchalar va g‘oyalardir;

Uchinchi daraja – motivatsion (pragmatik) daraja bo‘lib, uning birliklari pragmatikaga yo‘naltirilgan va shaxsning kommunikativ va faoliyat ehtiyojlarida” namoyon bo‘ladi.

² Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. Изд. 7-е. – М.: Издательство ЛКИ, 2010. – 264 с. – С. 7.

³ См.: Андриянова В.И. Ключевые составляющие современной личности // Преподавание языка и литературы, 2012. – № 4. С.35

⁴ Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. Изд. 7-е. – М.: Издательство ЛКИ, 2010. – 264 с. – С. 49.

Tadqiqotchilar tomonidan lingvistik shaxs fenomenini o‘rganish bo‘yicha olingan natijalarga asoslanib, rus tilini chet tili sifatida o‘qitish metodikasi bo‘yicha mutaxassislar tilni o‘qitish modelini ushbu tilning o‘z tizimining chegaralari bilan aniqlab bo‘lmaydi degan qoidani shakllantiradilar. Bunday tushuncha doirasida lingvistik shaxsni o‘rganishda ikkita yondashuv aniqlandi: 1) obyektни tahlil qilishga yo‘naltirish (asosan, psixolingvistik yo‘nalish asarlarida); 2) lingvistik shaxsning sintezi, rivojlanishi va shakllanishi hodisalarini o‘rganish.

Ushbu dissertatsiya ishida lingvistik shaxs fenomeni ikkinchi yondashuv doirasida ko‘rib chiqiladi: lingvistik shaxs “nutq shaxslari”ning ko‘p komponentli va ko‘p darajali tuzilishi sifatida tushuniladi (Klobukova ta’rifi)⁵.

Y.N.Karaulova tilshunos shaxsning uch bosqichli tarkibiy modeli konsepsiyasiga muvofiq rus tilini chet tili sifatida o‘qitish modelini yaratishni uchta parametr bo‘yicha farqlashni o‘z ichiga oladi: 1) tilning u yoki bu darajasini bilish darajasi bo‘yicha; 2) nutq faoliyati turlari bo‘yicha; 3) o‘quv auditoriyasida nutq aloqasi olib boriladigan mavzular, vaziyatlar bo‘yicha. Ushbu o‘quv modeliga ko‘ra, nutq faoliyati lingvistik shaxsning tarkibiy modelining barcha uch darajasining asosiy tarkibiy qismidir.

Filolog-talabalarga rus tilini chet tili sifatida o‘qitish modelini yaratishda Y.N.Karaulova til shaxsining uch bosqichli tarkibiy modeli konsepsiyasiga muvofiq uchta parametr bo‘yicha farqlanishni nazarda tutadi (1-rasm).

<i>tilning ma'lum bir darajasini bilish saviyasi bo'yicha</i>
<i>nutq faoliyati turlari bo'yicha</i>
<i>o'quv auditoriyasida nutq aloqasi olib boriladigan mavzular, vaziyatlar bo'yicha</i>

1-rasm. Y.N.Karaulovning lingvistik shaxsining uch darajali tarkibiy modeli parametrlari

Ushbu o‘quv modeliga ko‘ra, nutq faoliyati lingvistik shaxsning tarkibiy modelining barcha uch darajasining asosiy tarkibiy qismidir.

Mazkur qoida filolog-talabalarining to‘g‘ri kasbiy nutqini shakllantirish metodologiyasida alohida ahamiyatga ega. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, to‘g‘ri kasbiy nutq madaniyatini o‘rgatish metodologiyasining vazifasi til ifoda vositalari tizimidagi “potensial farq”ni kamaytirish asosida “inosotsiomadaniy” kommunikatorlar o‘rtasidagi masofani yengib o‘tadigan bunday ta’lim modelini yaratishdir⁶.

Y.N.Karaulovning “kasbiy nutq” tushunchasi obyektiv orqali lingvistik shaxsning uch bosqichli tarkibiy modelini ko‘rib chiqish bizga professional nutqda talaba-filolog shaxsining uchta asosiy gipostazlari, uning vakolatining uchta darajasi

⁵ См.: Тарасова И.П. Структура смысла и структура личности коммуниканта. // Вопросы языкознания. – М.: Наука, 1992. – С. 103-110; Клобукова qarang.

⁶ См.: Игнатова И.Б. Обучение грамматическому строю русской речи иностранных студентов-филологов как основа формирования языковой личности будущего учителя. Дисс... докт. пед. наук. – СПб., 1997; Самосенкова, 2000. – С. 65.

tabiiy ravishda aks etadi degan taxminni shakllantirishga imkon beradi : 1) talaba-filologning shaxsiyati (uning lingvistik kompetensiyasini chuqurlashtirish va kengaytirish orqali takomillashtirish darajasi o‘rganilayotgan chet tillarining grammatik hamda leksik tizimlarini bilish: ingliz va rus / nemis va rus va boshqalar); 2) talaba-filologning lingvistik shaxsi (o‘rganilayotgan chet tillarining lingvistik va lingvistik-madaniy bilimlarini o‘z ichiga olgan lingvistik kompetensiyani shakllantirish darajasi);⁷ 3) “ikkilamchi” lingvistik shaxs (bo‘lajak mutaxassis-filologning kasbiy va kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish darajasi) (2-rasm).



2-rasm. Filolog talabaning uch darajali malakasi

Chet tilini o‘rganishda “ikkilamchi” lingvistik shaxsni shakllantirish masalalarini ko‘rib chiqish davomida I.I.Xaleyeva bu jarayonning “ikki rejali” birlikda sodir bo‘lishini ta’kidlaydi:

I reja – biz idrok etish va tushunishga o‘rgatadigan haqiqiy lingvistik shaxs;

II reja – biz o‘quv jarayonida shakllantiradigan “ikkilamchi” (ikki baravar) lingvistik shaxs.

Rus tili o‘qitish metodikasi jihatidan “ikkilamchi” lingvistik shaxsni tushunish filolog talabalarni o‘qitishning asosiy maqsadini xorijiy (rus) tilida kasbiy nutq muloqotining dialogik shakli madaniyati sifatida aniqlashga yordam beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ushbu jarayonlarning barchasi filolog-talabalariga rus tilini chet tili sifatida o‘qitishning yangi yondashuvlarini mantiqiy izchil rivojlantirish va ularning kasbiy nutqini ikki asosiy yo‘nalishda shakllantirish orqali belgilashga imkon beradi, deb ta’kidlash mumkin:

1) dolzarb lingvistik va lingvometodik tadqiqotlarni (kommunikativ-pragmatik, lingvokognitiv, psixolingvistik va lingvodidaktik yo‘nalishlarni) o‘rganishga asoslangan kasbiy-terminologik apparatni shakllantirish tizimi / modelini, shuningdek AKTni ishlab chiqish va amalga oshirish bo‘yicha ishlarni ishlab chiqish;

2) filolog talabalar tomonidan kelajakdagi rus tili o‘qituvchisining kasbiy malakasini shakllantirishga hissa qo‘shadigan barqaror pragmatik klishe'larni o‘zlashtirish jarayonida rus tilini chet tili sifatida o‘qitishning yangi modellaridan foydalanish asosida “ikkilamchi” lingvistik shaxsni shakllantirish xususiyatlarini o‘rganish.

Shuningdek, ushbu bobda an’anaviy va elektron ta’lim imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. D.U.Xashimova ta’kidlashicha, elektron darslik o‘quv va kasbiy sohada nutq qobiliyatlari va ko‘nikmalarini takomillashtirishda muhim rol o‘ynaydi.

⁷ “Tilni bilish” ma’nosidagi kompetensiya tushunchasi 20-asrning 60-yillarida N.M.Xomskiy tomonidan ilmiy foydalanishga kiritilgan.

L.T.Ahmedova o'z tadqiqotida talabalarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash, pedagogik bilimlarni, kasbiy nutq ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqdi. Rus tili filolog talabalarini kasbiy yo'naltirilgan o'qitish jarayonida aralash o'qitish maqbul va maqsadga muvofiqdir, bu o'qituvchining o'quv faoliyatining an'anaviy (sinf) va yangi (axborot-kommunikatsiya, masofaviy) shakllaridan, shuningdek, raqamli (elektron) va bosma o'quv vositalaridan o'zaro bog'liqligini o'z ichiga oladi. Bu samarali, yuqori samarali o'quv jarayonini yaratishga imkon beradigan an'anaviy va elektron (masofaviy) o'qitish texnologiyalarining puxta o'ylangan kombinatsiyasidir.

Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va insoniyatning global muammolari (koronavirus pandemiyasi va boshqalar) sharoitida, umuman ta'lim tizimida, shu jumladan, universitetda elektron ta'limning (e-learning) yangi samarali modellarini ishlab chiqish zarur.

“Filologlarning kasbiy nutqini rivojlantirishda AKTdan foydalanish nazariyasi va amaliyoti” deb nomlangan ikkinchi bobda “masofaviy”, “elektron” ta'limga berilgan ta'riflar, shuningdek, ularning bo'lajak o'qituvchilar uchun roli va ahamiyati ko'rib chiqildi, sinfda kasbiy nutqni rivojlantirishga yordam beradigan usul va uslublar ko'rsatilgan, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishning takomillashtirilgan elektron resurslarining tarkibiy va funksional modeli taqdim etildi.

Umumiy va kasbiy zamonaviy ta'limni axborot-kommunikatsiyasi texnologiyalaridan (AKT) foydalanmasdan to'liq amalga oshirish mumkin emas.

Global tarmoqlarning paydo bo'lishi va keng tarqalishi ular taqdim etadigan axborot-kommunikatsiya vositalari to'plami asosida ularning imkoniyatlaridan foydalangan holda o'qituvchilar chet tillarini o'qitishni to'g'ri tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ldilar (E.G.Asimov, M.A.Bovtenko, E.S.Polat, O.Rudenko-Morgun va boshqalar).

Zamonaviy o'quv jarayonining talabalar faolligi va mustaqilligini rivojlantirishga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda, so'nggi paytlarda ushbu muammolarni hal qilish uchun axborot-kommunikatsiyasi texnologiyalarini (AKT) ishlab chiqish sezilarli darajada faollashdi.

Hozirgi vaqtda o'quv jarayonida kompyuter texnologiyalari yoki elektron ta'lim (e-learning)dan foydalanish mustaqil ishlarni tashkil etish va nazorat qilishning quyidagi variantlarini o'z ichiga oladi:

– o'z-o'zini o'qitish (elektron o'quv materiallari yoki Internet-resurslar bilan mustaqil ishlash);

– boshqariladigan ta'lim (talabalarining o'qituvchi rahbarligida auditoriyada mustaqil ishlashi).

Elektron o'quv materiallari turli xil dasturiy tizimlar asosida yaratilishi mumkin. Eng keng tarqalganlari LMS (Learning Management Systems), LCMS (Learning Content Management Systems), Moodle, Blackboard va boshqalar bo'lib, ushbu tizimlar o'quv materiallarini taqdim etish imkoniyati cheklangan Internet saytlaridir, ammo ular hozirgacha ta'lim muassasalari uchun eng qulay hisoblanadi.

Kamroq tarqalgan, ammo o'quv jarayonida samaraliroqlari mualliflik dasturlaridir. Bunday holda, elektron o'quv materiallari dasturchilar tomonidan elektron tarkibni yaratish bo'yicha metodist o'qituvchilar bilan hamkorlikda yaratiladi. Shu bilan birga, kompyuter texnologiyalarining o'qitish imkoniyatlari yanada samarali amalga oshiriladi.

O'quv-didaktik materiallar va nazorat-test topshiriqlari ko'rinishidagi mualliflik dasturiy mahsulotlari ikkita tizim – "o'quv-test tizimi" va "Interaktiv kutubxona" uchun yaratilgan. Ushbu ikkita dasturiy tizim formatida laboratoriya dasturchilari, metodistlar va rus tili kafedrası o'qituvchilari elektron o'quv hamda nazorat materiallarini yaratadilar, ular rus tilini o'qitishda, xususan, talabalarning mustaqil ishlarini va turli xil nazorat turlarini tashkil qilishda faol foydalaniladi.

Talabalar quyidagi elektron materiallar bilan mustaqil ishlash imkoniyatiga ega:

- o'quv materialining multimediyaviy taqdimotini, interaktiv treningni, test shaklidagi nazoratni, grammatik ma'lumotnomani o'z ichiga olgan interaktiv multimediyaviy grammatika qo'llanmalari;


- lug'at, grammatika, fonetika, tinglash va o'qish bo'yicha elektron o'quv hamda nazorat sinovlari. "O'quv-sinov tizimi"ning funksionalligi bajarilgan testlarni tekshirishni avtomatlashtirish, o'quvchilarning noto'g'ri javoblarini sozlash, o'quv yili davomida talabalarning test sinovlari bo'yicha individual va guruh statistikasini to'plash imkonini beradi;

- o'qituvchining lug'at va grammatika bo'yicha o'quv videosi hamda video ma'ruzasi bilan interfaol video darsliklar, interfaol test topshiriqlari va ma'lumotnomalar bilan to'ldirilgan;

- bosma nashrlarga interfaol dasturlar, shu jumladan, ovozli matnlar va dialoglar, matn mazmunini tushunishni nazorat qilishga qaratilgan vazifalar.

Texnik rivojlanishning zamonaviy bosqichi xorijiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonini takomillashtirish uchun katta imkoniyatlar ochadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari talabalarning til tayyorgarligini zamonaviy global axborot makoni va jamiyatning zarur ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarga ega bo'lgan shaxs talablariga muvofiqlashtirishga imkon beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash asosida kasbiy nutqni takomillashtirishning nazariy asoslari va shart-sharoitlarini tahlil qilish, shuningdek, ayrim pedagogik oliy o'quv yurtlarida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonini kuzatish ushbu jarayonning tarkibiy va funksional modelini takomillashtirish zarurligini ko'rsatdi (3-rasm).



3-rasm. Filolog-talabalarning kasbiy nutqini takomillashtirish modeli

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish asosida filolog-talabalarning kasbiy nutqini takomillashtirishning taqdim etilgan tarkibiy va funksional modeli talabalar o'rtasida turli xil kasbiy vaziyatlarda kasbiy, ijtimoiy-kommunikativ me'yorlar va rolli xatti-harakatlarni o'zlashtirish, o'zlarining kommunikativ harakatlarini loyihalash va talqin qilish uchun samarali aloqani shakllantirishga, shuningdek, o'quvchilarning o'quv faoliyati subyekti sifatida faolligini oshirishga qaratilgan.

Model yaratishning metodologik yondashuvlari: muammoga yo'naltirilgan, shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaga asoslangan, kommunikativ, lingvokulturologik yondashuvlardir.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash asosida filolog talabalarning kommunikativ kompetensiyasini va kasbiy nutqini rivojlantirish jarayoni quyidagi prinsiplarga asoslanadi: hamkorlikda o'qitish, talabalarning individualligini rivojlantirish, madaniy rivojlanishga muvofiqlik, ilmiy g'oyalar, mantiq, uzluksizlik va izchillik.

Axborot texnologiyalari orqali talabalarning kasbiy nutq ko'nikmalarini rivojlantirishning ishlab chiqilgan tarkibiy va funksional modelining asosi maqsadli, diagnostika, faoliyat va baholash komponentlar hisoblanadi.

Maqsadli komponentning vazifasi maqsadni belgilash, kutilgan natija – tilni o'qitishning muayyan uslublari va usullaridan foydalangan holda o'quv jarayonida AKTni qo'llash asosida filolog talabalarning kasbiy nutqini takomillashtirish.

Faoliyat komponenti axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali bo'lajak filologlarning kasbiy nutqini rivojlantirish bo'yicha aniq harakatlardan iborat. Dastlabki bosqichda o'rganilayotgan fan tarkibiga aqliy qobiliyat va nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus vazifalar kiritildi. Asosiy bosqich "Rus tili" fanidan o'quv jarayonini bevosita amalga oshirishni nazarda tutgan.

"Mutaxassislik tili" talabalarning mutaxassislik bo'yicha matnlarni lingvistik tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish sharoitida samarali muloqotni rivojlantirish hamda qobiliyatini shakllantirish maqsadida yaratilgan.

Yakuniy baholash komponenti maxsus ishlab chiqilgan metodologiyadan foydalangan holda AKTni qo'llash asosida talabalarning kasbiy nutqini rivojlantirish jarayonining samaradorligini aniqlashni o'z ichiga oladi.

Filologiya talabalarining kasbiy nutqini takomillashtirishning taqdim etilgan tarkibiy va funksional modeli dissertatsiya tadqiqotining uchinchi bobida batafsil tavsiflangan eksperimental tekshiruvdan o'tdi.

Biz taklif qilayotgan filologik yo'nalishdagi talabalarning kasbiy nutqini rivojlantirish modelida o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ustunlik qiladi: 4-rasm.

Ushbu bob doirasida, shuningdek, "Rus tili. Mutaxassislik tili" yo'nalishini o'qitish jarayonida talabalarning muloqot qobiliyatlari va ko'nikmalarini takomillashtirish maqsadida muvaffaqiyatli takrorlangan algoritmi prinsipi asosida kasbiy nutqni rivojlantirish hamda shakllantirish jarayonida qo'llaniladigan uslub va usullar ko'rib chiqiladi. Masalan, og'zaki va yozma.

Audio materiallar

- tarkibni tinglang va takrorlang;
- pauzalarni ekran ma'lumotlari uchun so'zlar bilan to'ldiring;
- ovozli diktant va boshqalar.

Vizual mashqlar

- tanlangan so'zlarni almashtirish;
- muvofiqlikni qidirish;
